

## LIRIKADA BADIY MAKON TALQINI

Sabirova Zebo Zokirovna

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti

Jurnalistika va o'zbek filologiyasi fakulteti

O'zbek adabiyotshunosligi kafedrası dotsenti v.b.

filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), mustaqil tadqiqotchi

Email: zebonur2017@gmail.com

ORCID: <https://orcid.org/0000-0002-1104-2893>

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21126123>

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada Muhammad Yusuf lirikasida badiiy makon va xronotopning poetik funksiyalari tahlil qilinadi. Tadqiqotda xronotopning topografik, psixologik, metafizik va mifologik turlari nazariy jihatdan yoritilib, shoir she'riyati misolida ularning badiiy-estetik vazifalari ochib beriladi. Muhammad Yusuf she'rlarida tabiat, vaqt, ijtimoiy muhit va metafizik tasavvurlar lirik qahramonning ichki kechinmalari bilan uyg'unlashib, psixologik xronotopni yuzaga keltirishi asoslanadi. Shuningdek, antropologik, tabiiy, kosmik, ijtimoiy, tarixiy, mifologik va ekzistensial makon obrazlarining poetik imkoniyatlari tahlil etiladi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, shoir ijodida badiiy makon ruhiy holatlarni ifodalovchi semantik maydon sifatida namoyon bo'lib, inson qalbidagi iztirob, sog'inch, yolg'izlik va falsafiy mushohadalarni teran yoritishga xizmat qiladi.

**Аннотация:** В статье исследуются художественное пространство и хронотоп в лирике Мухаммада Юсуфа. Рассматриваются теоретические основы топографического, психологического, метафизического и мифологического хронотопа, а также их художественно-эстетические функции в поэтическом тексте. На примере стихотворений поэта показано, что природные, временные, социальные и метафизические образы тесно связаны с внутренним миром лирического героя и формируют психологический хронотоп. Особое внимание уделяется антропологическим, природным, космическим, социальным, историческим, мифологическим и экзистенциальным пространственным образам. Результаты исследования свидетельствуют о том, что художественное пространство в поэзии Мухаммада Юсуфа выступает важным семантическим полем, раскрывающим духовные переживания, одиночество, тоску, философские размышления и особенности художественного психологизма.

**Abstract:** This article examines the artistic space and chronotope in the poetry of Muhammad Yusuf. The study analyzes the theoretical foundations of topographical, psychological, metaphysical, and mythological chronotopes and reveals their aesthetic functions in lyrical texts. Through selected poems, it is demonstrated that natural, temporal, social, and metaphysical images interact with the inner world of the lyrical persona, creating a distinctive psychological chronotope. Special attention is paid to anthropological, natural, cosmic, social, historical, mythological, and existential spatial images and their poetic significance. The findings show that artistic space in Muhammad Yusuf's poetry functions as an important semantic field that reflects emotional experiences, loneliness, longing, and philosophical contemplation. Thus, the interaction of space and time becomes a significant poetic mechanism for expressing psychological depth and artistic worldview in modern Uzbek lyric poetry.

**Kalit soʻzlar:** badiiy makon, xronotop, psixologik xronotop, topografik xronotop, metafizik xronotop, lirik qahramon, badiiy psixologizm, poetik tafakkur, antropologik makon, tabiiy makon, kosmik makon, ekzistensial makon, makon obrazlari, Muhammad Yusuf, zamonaviy lirika.

**Русча:** художественное пространство, хронотоп, психологический хронотоп, топографический хронотоп, метафизический хронотоп, лирический герой, художественный психологизм, поэтическое мышление, антропологическое пространство, природное пространство, космическое пространство, экзистенциальное пространство, пространственные образы, Мухаммад Юсуф, современная лирика.

**English:** artistic space, chronotope, psychological chronotope, topographical chronotope, metaphysical chronotope, lyrical hero, artistic psychologism, poetic thinking, anthropological space, natural space, cosmic space, existential space, spatial images, Muhammad Yusuf, modern lyric poetry.

Shoirning olamni idrok qilishi uning real hayotda kechayotgan voqea-hodisalarga munosabati, asarda ifodalayotgan poetik g'oya va obrazlar orqali yoritiladi. Obrazlar, birinchi bo'lib, shoirning tasavvurida jonlanadi. Tasavvur real borliqdagi turli qarama-qarshiliklar jonli va jonsiz predmetlar natijasida shakllanadi. Ana shu shakllanish bevosita lirik tur janrlarida tuyg'ularga ko'chadi va hissiyot, fikr uyg'unlashib, ta'sirlanish natijasida ma'lum bir g'oyaning tug'ilishiga sabab bo'ladi.

Shuning uchun ham ko'pchilik ilmiy tadqiqotchilar lirik turda xronotopni o'rganar ekan, tadqiqotchi D.Xursanov janr tabiatiga chuqurroq kirib borish uchun xronotopning to'rtta asosiy kategoriyasini ham to'liq qamrab olishga harakat qilishadi, fikrni ilgari suradi.

1. Aniq (topografik) xronotop. Unda real obrazlar tasvirlanadi. Masalan, tog', bog', o'rmon, yo'l, uy, xona va boshqalar. Badiiy vaqt ham aniq o'z qiymatini saqlab qoladi. Masalan, yil, oy, hafta, kun, tun, soat, minut, sekund, kechqurun, ertalab va hokazolar.

2. Psixologik xronotop. Bu holatda asosan, tashqi makon ichki makonga ko'chadi. Masalan, qalb, yurak, ko'z, soch ba'zi hollarda tush va hokazolar, badiiy vaqt o'tgan, hozirgi, kelasi zamonni o'z ichiga qamrab oladi. Psixologik xronotopda hissiyot yetakchi bo'lganligi uchun xotira vaqti alohida ahamiyat kasb etadi.

3. Metafizik xronotop. U mifologik xronotopga yaqin turadi. Unga asosan, hayot, o'lim, borlik, yo'qlik, jannat, do'zax, cheksizlik, abadiylik kabi tushunchalar kiradi.

4. Mifologik xronotop. Har bir shoir ijodida uchraydigan mifologik obrazlarning badiiy matnda bajargan vazifasiga qarab belgilanadi. Chunki, mifologik obrazlar o'zlarining harakat nuqtalari aniq, faqatgina qanday voqelikda qay tarzda ishtirok etish, etmasligi bilan ajralib turadi. Endi bu ko'proq shoirning tanlagan mavzusi bilan bog'lanadi.

Yuqoridagi tasnifdan ko'rinadiki, xronotop badiiy matnda makon va zamonning oddiy tasviri emas, balki lirik qahramon ruhiyati, dunyoqarashi hamda poetik tafakkurini ochuvchi muhim estetik vosita hisoblanadi. Aniq (topografik) xronotopda voqelik real makon va tabiiy vaqt mezonlari orqali ifodalansa, psixologik xronotopda tashqi olam insonning ichki kechinmalariga ko'chadi. Metafizik xronotop esa insonning borliq, hayot va abadiyat haqidagi falsafiy mushohadalarini ifodalab, lirikaning ontologik qatlamini yuzaga chiqaradi. Mifologik xronotopda esa mifopoetik obrazlar orqali milliy tafakkur, qadimiy tasavvurlar va ramziy ma'nolar badiiy tizimga singdiriladi. Demak, xronotopning har bir turi she'riy matnda alohida estetik vazifa bajaradi: topografik xronotop realizmni, psixologik xronotop hissiy-intellektual

qatlamni, metafizik xronotop falsafiy mushohadani, mifologik xronotop esa ramziy va arxetipik tafakkurni kuchaytiradi. Biz esa lirikadagi makon obrazlarining funksional-tipologik tasniflaridan bir nechtasini quyidagicha keltirishni taklif qilamiz:

a) antropologik makoniy obrazlar: bu kabi makoniy obrazlarda lirikada ancha faol hisoblanadi. Antropologik makoniy obrazlar lirikada inson tanasi va ruhiyati bilan bog'liq makon tasvirlari orqali yuzaga chiqadi. Bunday obrazlarda ko'z, yurak, bag'ir, qo'l, bosh, yelka, soch kabi tana a'zolari oddiy anatomik tushuncha emas, balki insonning ichki olami va ruhiy kechinmalarini ifodalovchi poetik makonga aylanadi. Shu jihatdan antropologik makon obrazlari lirik qahramonning ma'naviy holati, iztirobi, muhabbati va ruhiy izlanishlarini ochishda muhim poetik vosita vazifasini bajaradi;

b) tabiiy makoniy obrazlar – tog', sahro, daryo, osmon, yomg'ir, shamol, bog', tun kabi tabiat unsurlari orqali yaratiladi. Bu turdagi makoniy obrazlar tavsifiy lirikada keng qo'llaniladi va psixologik parallelizmni yuzaga keltiradi. Masalan, cho'l – yolg'izlik, dengiz – cheksizlik ramzi bo'lishi mumkin;

d) kosmik makon obrazlari – osmon, oy, quyosh, yulduz, samo kabi timsollar inson ruhiyatidagi cheksizlik, yolg'izlik, armon va ma'naviy izlanishlarni badiiy shaklda ochishga xizmat qiladi. Ayniqsa modern lirika namunalarida kosmik makon tashqi tabiat tasviri bo'libgina qolmay, lirik qahramonning ichki olamiga ko'chgan ruhiy makon sifatida namoyon bo'ladi. Natijada badiiy vaqt va makon psixologik holat bilan uyg'unlashib, xronotop poetikasini yuzaga keltiradi. oy, quyosh, yulduz, falak, koinot bilan bog'liq tasvirlar. Ko'pincha abadiyat, taqdir, ilohiylik ma'nolarini beradi;

c) psixologik makon obrazlari – qahramonning ichki ruhiy olami makon sifatida tasvirlanadi. Masalan, "qalb qa'ri", "xotira ko'chalari", "ruh sahrosi"; e) ijtimoiy makon obrazlari – jamiyat, shahar, qishloq, ko'cha, saroy, bozorlarga oid tasvirlar. Bu kabi makoniy obrazlar lirikada ijtimoiy muhit va davr ruhini ifodalashga xizmat qiladi; f) tarixiy makon obrazlari – qadimiy shaharlar, tarixiy joylar, muqaddas maskanlar bilan bog'liq obrazlar. Masalan, Samarqand yoki Buxoro timsoli tarixiy xotirani uyg'otadi; g) mifologik va ramziy makon obrazlari – jannat, do'zax, afsonaviy bog'lar, sirli yo'llar kabi mifopoetik tasvirlar. Bular ko'pincha ramziy ma'no yuklaydi; j) egzistensial makon obrazlari – bo'shliq, chegara, yo'l, chorraha kabi insonning mavjudlik holatini ifodalaydigan makonlar. Modern she'riyatda ko'p uchraydi; l) urbanistik makon obrazlari – zamonaviy shahar muhitini ifodalaydi: bekat, metro, baland bino, chiroqlar va hokazo; i) muqaddas makon obrazlari – masjid, ziyoratgoh, qabriston, Ka'ba kabi diniy-falsafiy makonlar. Ular ruhiy poklanish yoki ilohiy yaqinlikni ifodalaydi; k) xotira bilan bog'liq makon obrazlari – bolalik hovlisi, eski uy, ona qishlog'i kabi o'tmish bilan bog'liq makonlar kiradi.

Muhammad Yusuf ijodida badiiy psixologizm badiiy makon orqali kuchayadi: makon tasviri lirik subektning ruhiy holatiga mos ravishda o'zgaradi, ranglanadi va ma'nolanadi. Masalan, sokin tabiat manzaralari xotirjamlik yoki sog'inchni ifodalasa, ayrim hollarda bo'sh va huvillagan makon yolg'izlik va iztirob ramziga aylanadi. Shu jihatdan badiiy makon shoir lirikasida ichki "ruhiy makon" bilan uyg'unlashadi va inson psixologiyasining nozik qatlamlarini ochib beruvchi muhim poetik unsurga aylanadi.

Ko'zimdan yosh bo'lib yog'adi yaproq.

Do'stlarim – takabbur shoirvachchalar

O'zlarin sevishar yoridan ko'proq.

Birinci misrada “yaproq” obrazi markaziy badiiy makoniy obrazga aylanadi. Yaproq odatda kuz, xazon va so’nish bilan bog’liq bo’lib, bu yerda u ruhiy makonning timsoli sifatida ishlatilgan. “Ko’zimdan yosh bo’lib yog’adi yaproq” ifodasi tashqi tabiat hodisasini ichki kechinmaga ko’chiradi, ya’ni tabiat makoni ruhiy makonga transformatsiya jarayoni yuz beradi va psixologik makonning kuchli ifodasidir.

Ikkinchi va uchinchi misralarda makon ijtimoiy tus oladi. “Do’stlarim” obrazi orqali ijtimoiy makon (adabiy muhit, ijodiy davra) yaratiladi. Ammo bu makon iliq emas, balki “takabbur shoirvachchalar” orqali salbiy, sovuq va begonalashgan muhit sifatida tasvirlangan va bu yerda makon endi fizik emas, balki axloqiy-psixologik makonga aylanadi.

“O’zlarin sevishar yoridan ko’proq” misrasi esa bu makonning ichki mohiyatini ochadi: satrda samimiyat yo’q, muhabbat o’rnini o’zini sevish (egoizm) egallagan. Natijada makon do’stlar davrasi ruhiy yolg’izlik makoniga aylanadi.

Demak, bu parchada badiiy makon uch qatlamda namoyon bo’ladi:

- a) tabiat makoni (yaproq);
- b) ruhiy makon (ko’z yoshi, iztirob);
- c) ijtimoiy makon (do’stlar muhiti).

Bu uchala makon o’zaro tutashib, lirik qahramonning ichki yolg’izligi va ruhiy iztirobini kuchaytiruvchi yagona poetik makonni hosil qiladi.

Kunlarning kaftida sevgi xanjari,  
Bag’rimda begunoh bir gul so’ladi.  
Toychoqqa aylanib goh kechalari.  
Tuproqqa ag’anab yotgim keladi!..

She’rning birinchi misrasida “kunlarning kafti” ifodasi orqali vaqt makonlashtiriladi va vaqt (kunlar) insoniylashtirilib, makon sifatida tasvirlanadi. Shu makon ichida “sevgi xanjari” mavjud bo’lib, bu esa muhabbatning og’riq, jarohat beruvchi kuchga aylanganini bildiradi. Demak, bu yerda vaqt makoni ruhiy og’riq makoniga aylangan.

Ikkinchi misrada “bag’rimda gul” obrazi ichki makonni ifodalaydi. Gul poklik va sevgi timsoli, uning “so’lishi” esa ruhiy iztirob, yo’qotish va umidsizlikni bildirib, psixologik makonning markaziy nuqtasi sifatida namoyon bo’ladi.

Uchinchi misrada makon dinamiklashadi: “kechalar” – vaqt makoni, “toychoqqa aylanish” esa ichki holatning ramziy ifodasi. Bu yerda inson o’z ruhiy bosimidan qochishga intiladi, ya’ni makon harakat va iztirob makoniga aylanadi.

So’nggi misrada “tuproq” obrazi paydo bo’ladi. Tuproq metafizik makon hisoblanadi: u sokinlik, taslim bo’lish, hatto yo’qolish istagini bildiradi. “Ag’anab yotgim keladi” ifodasi ruhiy charchoqning eng yuqori nuqtasini ko’rsatadi.

She’riy parchada badiiy makon quyidagi qatlamlarda namoyon bo’ladi:

- a) vaqt makoni (kunlar, kechalar);
- b) ruhiy makon (bag’ir, so’layotgan gul);
- c) ramziy-kosmik makon (tuproq).

Ular birlashib, lirik qahramonning sevgi tufayli yuzaga kelgan ichki iztirobi, ruhiy parchalanishi va charchoq holatini chuqur badiiy ifodalaydi.

Tuzalmaydi dardim mening,  
O’lsam kerak.  
Tuproq bilan og’a-ini

Bo'lsam kerak.

O'lim nima? Bu ham bitta

Sayr, Ona.

O'g'ling qaro yerga ketdi,

Xayr, Ona...

Mazkur she'r parchasida badiiy makon, lirik qahramonning ruhiy olami va badiiy vositalar nihoyatda kuchli uyg'unlikda ishlatilgan. Har bir qatorda iztirob, ruhiy halokat, mavjudlik va yo'q bo'lish orasidagi o'tkir hissiy tafovut bor.

Ushbu she'rda badiiy makon – tuproq, qaro yer kabi obrazlar orqali o'lim, unutilish va abadiylik tushunchalarini ochadi. Lirik qahramon darddan tinkasi qurigan va najotni o'limda ko'rayotgan, onasiga so'nggi vidoni aytayotgan insondir. Badiiy vositalar esa bu holatni sodda, ammo chuqur obrazlar orqali berishga xizmat qiladi: metafora, epitet, insonlashtirish yordamida og'ir mazmun yengil tarzda ifoda etiladi. She'r – o'lim haqida emas, og'riqdan charchagan tiriklik haqida. O'lim esa bu yerda – yengillik, sayr, tinchlik ifodasi sifatida namoyon bo'ladi.

Muhammad Yusuf she'riyati asosida olib borilgan mazkur tahlillar shuni ko'rsatadiki, shoir lirik asarlarida badiiy makon va xronotop muhim poetik vosita sifatida namoyon bo'ladi. Uning she'rlarida tashqi borliq (tabiat, vaqt, ijtimoiy muhit) bevosita ichki ruhiy kechinmaga ko'chib, psixologik xronotop ustuvorlik kasb etadi. Ayniqsa, “yaproq”, “gul”, “tuproq”, “kunlar”, “kechalar” kabi obrazlar orqali shoir inson qalbidagi iztirob, yolg'izlik va ma'naviy charchoqni badiiy makon vositasida ifodalaydi.

Shoir she'rlarida aniq (topografik), psixologik va metafizik xronotop qatlamlari o'zaro tutashib, murakkab poetik tizimni yuzaga keltiradi. Tashqi makon ko'pincha ichki kechinmaga aylantiriladi, natijada badiiy makon ruhiy makon bilan uyg'unlashadi. Shu jihatdan Muhammad Yusuf lirikasida makon oddiy fon emas, balki ruhiyatni ochuvchi asosiy semantik maydon vazifasini bajaradi.

Bundan tashqari, shoir ijodida metafizik xronotop hayot va o'lim, borliq va yo'qlik, abadiylik va foniqlik kabi tushunchalar orqali oydinlashadi. O'lim obrazi ko'pincha fojea emas, balki ruhiy yengillik va najot sifatida shoirning falsafiy qarashlarini talqin qilinadi.

Demak, Muhammad Yusuf she'riyatida badiiy makon va xronotopning turli qatlamlari uyg'unligi lirik qahramonning ichki dunyosini teran ochib berishga xizmat qiladi. Xronotop zamonaviy o'zbek lirikasida psixologik badiiylilikni ta'minlovchi muhim poetik hodisa sifatida namoyon bo'ladi.

Xulosa: 1. Muhammad Yusuf lirikasida xronotop badiiy tafakkurning muhim tarkibiy qismi sifatida namoyon bo'lib, unda makon va zamon lirik qahramonning ruhiy kechinmalari bilan uzviy bog'langan holda tasvirlanadi. Shoir she'rlarida topografik, psixologik va metafizik xronotop qatlamlari o'zaro uyg'unlashib, poyetik mazmunning chuqurlashishiga xizmat qiladi.

2. Shoir ijodida antropologik, tabiiy, ijtimoiy, kosmik va metafizik makon obrazlari keng qo'llanilib, ular inson qalbidagi sog'inch, iztirob, yolg'izlik, muhabbat va umidsizlik kabi ruhiy holatlarni badiiy ifodalashning samarali vositasiga aylanadi.

3. Muhammad Yusuf she'riyatida badiiy makon oddiy tasviriy fon emas, balki lirik qahramon ruhiyatini ochuvchi semantik-estetik maydon vazifasini bajaradi. Ayniqsa, yaproq, gul, tuproq, kun, kecha kabi obrazlar psixologik va ramziy ma'nolar kasb etib, badiiy psixologizmning kuchayishiga xizmat qiladi.

4. Muhammad Yusuf lirikasida xronotopning poyetik imkoniyatlari inson va borliq munosabatlarini, hayot va o'lim, mavjudlik va abadiylik haqidagi falsafiy mushohadalarni yoritishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu jihatdan shoir she'riyati zamonaviy o'zbek lirikasida psixologik teranlik va poyetik mukammallikni namoyon etuvchi yorqin badiiy hodisa hisoblanadi.

### **Adabiyotlar, References, Литературы:**

1. Тороп П.Х. Хронотоп и теория художественного текста // Исследования по семиотике и теории литературы. – Тарту, 1980.
2. Хурсанов Д. Ўзбек шеърлятида хронотоп поэтикаси. – Тошкент: Фан, 2020. – 156 б.
3. Муҳаммад Юсуф. Сайланма: шеърлар, дostonлар, шоир ҳақидаги хотиралар. – Тошкент: «Шарқ» нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси Бош таҳририяти, 2007. – 397 б.
4. Ҳотамов Н., Саримсоқов Б. Адабиётшунослик терминлари луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1983. – 320 б.
5. Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. – Toshkent: Akademnashr, 2018. – 368 b.
6. Йўлдошев Қ. Бадий таҳлил асослари. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2016. – 304 б.